



SANOAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIGA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISHNING USTUVOR JIHATLARI

Olimov Maqsudjon Komiljon o'g'li,
tayanch doktorant,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sanoat ishlab chiqarish korxonalarida innovatsion jarayonni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilingan. Shuningdek, sanoat korxonalariga innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor jihatlari belgilab berilgan.*

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish, korxona, sanoat, innovatsiya, strategiya, salohiyat.*

Ayni paytda globallashuv shiddatli kechayotgan davrda bozor munosabatlarining yo'lga qo'yilishi, mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi hamda iqtisodiy tizimdagi axborot rolining o'sishi, yangi texnologiyalar, kapital bozorlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishini taqozo etmoqda. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlari tajribasini o'rganish, shuningdek, respublikamizning boy tabiiy va ijtimoiy resurslari, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyatini hisobga olib, innovatsion rivojlanish yo'lini tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, mamlakatimiz rivojlanishini maksimal darajada tashkil etish uchun, eng avvalo, innovatsion hamda ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor qaratish lozim.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal taraqqiyotini ta'minlash uchun tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aks holda nafaqat iqtisodiyotimiz rivojini, balki milliy taraqqiyotning yuksak sur'atlarini ham ta'minlab bo'lmaydi.

O'zbekiston iqtisodiyotida milliy sanoatning roli va ahamiyati salmoqli bo'lib, davlat mustaqilligiga erishilgandan keyin bu sohada tub xo'jalik-iqtisodiy, tashkiliy-institutsional va tarkibiy islohotlar amalga oshirildi. Sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, davlat – aksiyadorlik, korporativ, jamoa va xususiy mulk shakllariga aylantirish, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, chet el kapitali ishtirokidagi qo'shma korxonalar tashkil etildi.

Korxonalarda innovatsiyalarni qo'llash orqali yangicha raqobatga asoslanish mumkin. Boshqacha aytganda raqobatlashuv tendensiyalarida o'zgarishlar yuzaga keladi. Mukammal raqobat jamiyat uchun juda kuchli stimul bo'lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga va ish haqini uning me'yoriy unumdorligiga maksimal yaqinlashtiradi.

Ilmiy izlanishning hozirgi davrda bizning respublikamizda iqtisodiyot rivojlanish holati va barcha tarmoqlardagi strukturaviy o'zgarishlarga mos ravishda olib borilishi iqtisodiyotda bo'layotgan o'zgarishlarni muvofiqlashtirishga olib kelmoqda. Ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishi korxonalariga yangilik kiritish jarayoni bo'yicha ko'p muammolar paydo bo'lmoqda va ularni o'z vaqtida hal etish, kerakli kadr, moddiy texnika bazasi, tashkiliy va uslubiy tadbirlarni talab etadi.


Korxonalar o'z faoliyatlarida innovatsiyalarni qo'llashdagi muammolarni hal etishga yo'naltirsalar-da, ma'lum holatlarda qiyin sharoitga tushib qolish ehtimoli ko'p uchraydi.

Shuning uchun innovatsiyalarni amalga oshirishni ayrim korxonalar faoliyatidagina kuzatish mumkin. Masalan, korxonalar yangilik joriy etish jarayonida, xorijdan investitsiyalar jalb etish va raqobatdosh mahsulot chiqarish borasida hal etilmagan masalalar va vazifalarga duchor bo'lib, ularni yechimini topishga intiladilar.

Innovatsiyaviy asosga ega bo'lgan iqtisodiy rivojlanish masalasini yechish jarayonida, korxona innovatsiyaviy maqsadlar tizimini ifodalashi lozim. Bu ayniqsa, o'z rivojlanishining faol strategiyasini amalga oshirayotgan korxonalar uchun muhimdir.

Sanoat korxonasi innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun ixtiyorida quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

- g'oya va ishlanmalarni moliyalashtirish uchun yetarli pul mablag'lari;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirish va uni joriy etish uchun qobiliyatli xodimlar;
- har qanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi original (rasman) g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.




1-rasm. Korxonalarda innovatsiya strategiyasini amalga oshirish omillari

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, korxonaning innovatsion salohiyati korxonaning barcha jihatlarini, ya'ni yangilikni yaratish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatini ifodalaydi.

Mamlakatimizda korxonalarni rivojlantirish uchun respublikamizning iste'mol bozorlarini aholi o'rtasida xaridorgir bo'lgan sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish, tarmoqning eksport salohiyatini oshirish, kichik korxonalar tomonidan raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, tarmoqda yangi texnik va texnologik, investitsiya siyosatini yuritish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hisobiga yangi va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni muntazam o'zlashtirish, tarmoq korxonalarini yangi texnikalar bilan jihozlashga jiddiy e'tibor qaratish uchun xorijiy sarmoyalarni keng ko'lamda jalb etish chora-tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqarilishga taklif etilayotgan mahsulotning raqobatdoshligi to'g'risida xulosa chiqariladi va uni ishlab chiqarishga yo'naltirish yoki yo'naltirmaslik borasida qaror qabul qilinadi.



2-rasm. Korxonaning innovatsion salohiyati elementlari

Shu bilan birga olingan baholash natijalari har doim ham real raqobatdoshlik darajasiga to'g'ri kelmaydi. Bu quyidagi sabablar tufayli ro'y berishi mumkin:

- murakkabliligi;
- tadqiqot va ishlanmalar to'g'risidagi axborotni o'z ichiga olgan yagona axborot bazasining yo'qligi;
- mahsulot raqobatdopshigini baholashning amaldagi uslubiyoti tomonidan nazarda tutilgan ko'rsatkichlar tizimining cheklanganligi.

Yangi mahsulot raqobatdoshligini baholashdagi asosiy muammolardan biri, bu sifatni ushlab turishga sarflangan xarajatlari uslubiyotini ishlab chiqishdir. Ushbu muammo alohida sifat menejmenti sohasida batafsil o'rganiladi. Shuning uchun ham bu yerda taktik va strategik xarakterga ega bo'lgan quyidagi asosiy vazifalarga to'xtalib o'tish yetarli bo'ladi:



- tashqi va ichki bozorlardagi mahsulotning real raqobatdoshligini baholash;
- ishlab chiqarish va ekspluatatsiyaviy umumiy xarajatlarini minimumga olib kelgan holda sifatning berilgan darajasini ta'minlash;
- investitsiyalarning zaruriy hajmini va ularni innovatsiyaviy jarayon bosqichlari va ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishini aniklash;
- yangi mahsulot narxi va ishlab chiqaruvchi korxona xizmatlarini optimallashtirish;
- yangi mahsulot sifatiga bo'lgan xarajatlar va ishlab chiqaruvchining innovatsiyaviy faoliyati natijalarining o'zaro aloqasini aniqlash.

Ilmiy-texnikaviy va ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy-sanoat uyushmalari va boshqa yirik markazlarning O'zbekistondagi faoliyati samaradorligi ular qoshida kichik ilmiy-ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish yo'li bilan oshirilishi mumkin, ularning asosiy vazifasi ilmiy ishlanmalar va ixtirolarning keng ko'lamliligini ta'minlashdir.

O'zbekiston sharoitida innovatsion korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlash ishida quyidagi vazifalarni hal qilish katta ahamiyat kasb etadi:

- asosan mahalliy menejerlarning malakasiga bog'liq bo'lgan yangiliklarni izlash va o'zlashtirishga moyil muhitni yaratish;
- butun innovatsiya faoliyatining iste'molchi ehtiyojlariga bo'ysundirilishi;
- “tadqiqot – ishlab chiqarish – sotish” jarayonini tezlashtirish maqsadida boshqarmada darajalar sonini qisqartirish;
- yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etish muddatlarini qisqartirish.

Innovatsiyalarni joriy qilish sanoat ishlab chiqarishi korxonalari faoliyati rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Bozor munosabatlari sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar va xo'jaliklarning raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishlari, xizmatlar ko'rsatishda muvaffaqiyatga erishishlari uchun muntazam ravishda yangiliklarni izlashga intilishlari va o'z faoliyatlariga tatbiq etishlari bu boradagi eng muhim jihatlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2022.
2. E.X.Maxmudov, M.Y. Isakov. Korxona – iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2017.
3. A.Ortiqov. Sanoat iqtisodi. Darslik. Toshkent, TDIU, 2016. b 236.
4. M.K.Olimov, I.S. Khotamov. Negative impacts of coronavirus pandemic on industrial production in Uzbekistan and measures to overcome. “Молия ва банк иши” электрон илмий журнали. II сон. март-апрель, 2020.
5. Д.Г. Мамаджонов. Иқтисодий ва рақамлаштириш шароитида sanoat тармоғининг бошқарув самарадорлигини ошириш йўллари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 3, июнь, 2018 йил.